

OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.	2732CYQP* <b>Familiya Ism (Viloyat)</b> <b>*JAVOBLAR</b>
Namuna: 2732CYQP*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)*BAADACCCAACA...	
<b>Izoh:</b>	
1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida <b>O',G'</b> harflari qatnashsa ularni o'rniga <b>U</b> va <b>G</b> harflarini ishlating.	
2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.	
3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. <b>27.06.2019-28.06.2019</b>	
4) Repetitsion testning sms javoblari soat <b>21:00</b> gacha qabul qilinadi.	
Natijalar: Har kuni <b>@repetitsiontestuz</b> kanalida soat <b>22:00</b> e'lon qilinadi	

## SAVOLLAR KITOBI

999988

BLOKLAR:

Matematika (3.1)

Fizika (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

### DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

## MATEMATIKA

1. Quyida keltirilgan sonlardan qaysi biri 15 ga bo'linmaydi?  
A) 4620 B) 6130 C) 3105 D) 6525
2.  $1,1(6)+0,12(3)$  ni hisoblang.  
A) 19 B)  $1\frac{29}{100}$  C)  $2\frac{7}{90}$  D)  $\frac{7}{30}$
3.  $P(x)$  qanday bo'lganda  $P(x-3)+P(x+1)=2x^2-10x+16$  bo'ladi?  
A)  $x^2-3x+1$  B)  $x^2-x+3$   
C)  $x^2-3x$  D)  $2x^2-9$
4. Ifodani soddalashtiring  $\frac{19}{\sqrt{20}-1}-2\sqrt{5}+5$ .  
A)  $4\sqrt{5}-4$  B)  $2\sqrt{5}+4$  C) 4 D) 6
5.  $a$  va  $b$   $x^2+mx+m^2+c=0$  tenglamaning ildizlari.  $a^2+ab+b^2+c$  ifodaning qiymatini toping.  
A)  $-m^2-c$  B)  $m+c$  C) 0 D)  $mc$
6. Rasmda keltirilgan uchburchakda  $|BE|=|BF|$ ,  $|CF|=|CD|$  bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?  
  
A)  $3x+y=180^\circ$  B)  $x+y=180^\circ$   
C)  $2x+y=180^\circ$  D)  $x+2y=180^\circ$
7.  $ABC$  uchburchakda  $\angle A=30^\circ$ ,  $AB=\sqrt{3}$  va  $AC=4$ .  $A$  burchak uchidan tushirilgan balandlikni toping.  
A)  $\frac{2}{7}\sqrt{21}$  B)  $\frac{4}{7}\sqrt{21}$  C)  $\frac{3}{7}\sqrt{21}$  D)  $\frac{\sqrt{21}}{7}$
8. Romning tomoni  $10\sqrt{3}$  ga, o'tmas burchagi  $120^\circ$  ga teng. Unga ichki chizilgan doiraning yuzini toping.  
A)  $58,6\pi$  B)  $56,25\pi$  C)  $48,75\pi$  D)  $52,25\pi$
9. Agar ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisi har bir uchdan bittadan olingan tashqi burchaklar yig'indisidan 6 marta katta bo'lsa, uning tomonlari sonini toping.  
A) 15 B) 10 C) 14 D) 16
10.  $(x+2)(x^2+10x+25)\cdot\sqrt{49-x^2}\geq 0$  tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha butun sonlar yig'indisini toping.  
A) 20 B) 13 C) 25 D) 28
11. Arifmetik progressiyaning oltinchi hadi 10 ga, dastlabki 16 ta hadining yig'indisi 200 ga teng. Shu progressiyaning to'qqizinchi hadini toping.  
A) 14 B) 16 C) 11 D) 13
12.  $2^{x-1}+2^{x-2}+2^{x-3}=448$  tenglamani yeching.  
A) 11 B) 10 C) 9 D) 7
13. Agar  $a=\log_{14} 7$  va  $b=\log_{14} 5$  bo'lsa,  $\log_{35} 28$  ni  $a$  va  $b$  orqali ifodalang  
A)  $\frac{2-a}{a+b}$  B)  $\frac{a+b}{a-2}$  C)  $\frac{a-2}{a+b}$  D)  $\frac{a+2}{a+b}$
14.  $\vec{m}(-1; 5; 3)$  va  $\vec{n}(2; -2; 4)$  vektorlarning skalyar ko'paytmasini hisoblang.  
A) -10 B) 0 C) 2 D) -24
15.  $B(-4; 2)$  nuqtadan  $x$  o'qiga perpendikulyar tushirildi. Shu perpendikulyar asosining koordinatalarini toping.  
A) (4; 0) B) (-4; 2) C) (-4; 0) D) (0; 2)
16. Muntazam to'rtburchakli prizma asosining yuzi 144 ga teng. Agar uning diagonalini 22 ga teng bo'lsa, prizmaning balandligini toping.  
A) 16 B) 20 C) 26 D) 14
17. Muntazam to'rtburchakli kesik piramidada asoslar tomonlari 8 va 2, balandlik esa 4 ga teng. Piramidaning to'la sirti nimaga teng?  
A) 169 B) 168,1 C) 168 D) 170
18. Muntazam oltiburchak piramidaning apofemasi 5 ga teng, piramida asosiga tashqi chizilgan doiraning yuzi esa  $12\pi$  ga teng. Bu piramidaga ichki chizilgan sharning radiusini toping.  
A) 3 B) 3,2 C) 2,5 D) 1,5
19.  $f(x)=\sqrt{3}\ln x$  funksiya grafigiga absissasi  $x_0=3$  bo'lgan nuqtada urinma  $OY$  o'qi bilan qanday o'tkir burchak tashkil qiladi?  
A)  $\arctg 2$  B)  $30^\circ$  C)  $\arctg 3$  D)  $60^\circ$
20.  $ax^2+bx+c$  ( $a>0$ ) funksiya  $x=1$  da 2 ga teng bo'lgan eng kichik qiymatni qabul qiladi. Agar  $y(2)=4$  bo'lsa,  $a$ ,  $b$  va  $c$  ni toping.  
A)  $a=6; b=-2; c=4$  B)  $a=3; b=6; c=2$   
C)  $a=2; b=-4; c=4$  D)  $a=4; b=2; c=6$
21.  $A(7; -5)$  nuqtadan o'tuvchi va absissa o'qiga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamasini toping.  
A)  $x=7$  B)  $x=-5$  C)  $x=5$  D)  $x=-7$
22.  $f(x)=\sin(x/4+5)$  funksiyaning boshlang'ich funksiyasi  $F(x)$  ni toping.  
A)  $1/4\cos(x/4+5)+C$  B)  $-4\cos(x/4+5)+C$   
C)  $5\cos(x/4+5)+C$  D)  $4\cos(x/4+5)+C$
23.  $M=\sin 72^\circ$ ,  $N=\cos 220^\circ$  va  $Q=\ctg 184^\circ \sin 4^\circ$  sonlarini kamayish tartibida qo'yib chiqing.  
A)  $N>Q>M$  B)  $Q>M>N$  C)  $N>M>Q$  D)  $Q>N>M$
24.  $\frac{\tg \frac{x}{2}-1}{\ctg \frac{x}{2}}=2\sin \frac{x}{2}$  tenglamaning  $(180^\circ; 540^\circ)$  oraliqdagi ildizlari ayirmasining modulini toping.  
A)  $240^\circ$  B)  $120^\circ$  C)  $135^\circ$  D)  $180^\circ$
25. Teploxod ikki pristan orasidagi masofani daryo oqimi bo'ylab 7 soatda, oqimga qarshi 9 soatda o'tadi. Oqimning tezligi 2 km/soat. Pristanlar orasidagi masofani aniqlang (km).  
A) 128 B) 126 C) 130 D) 120
26. MS Excel.  
=ОСТАТ(14;6)-ЗНАЧЕН(ЗАМЕНИТЬ(СЦЕПИТЬ(2;4);2;3;1))  
buyrug'i berilganda qanday natija hosil bo'ladi.  
A) -29 B) -23 C) -19 D) -21
27. 524, 353, 307 butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig'indisini aniqlang.  
A) 1406 B) 1184 C) 1285 D) 1520
28.  $A1=-9$ ,  $A2=-1$ ,  $B1=7$ ,  $B2=5$  bo'lsin. Natija 5 ga teng boladigan fo'rmulani aniqlang.  
A) =МИН(ABS(A1);B2;ABS(B1\*A2))  
B) =ЕСЛИ(A1\*B2<0;A2+5;B2+9)  
C) =ЕСЛИ(A1\*B2>=0;A2+9;B2+5)  
D) =МАКС(ABS(A1\*A2);ABS(B1\*B2))
29. HTML (Hypertext Markup Language) bu...  
A) Internetdagi ma'lumotlarni uzatish qoidalari  
B) Dasturlash tili bo'lib, unda web sahifalar yaratish

mumkin

C) Gipermatnli markerlash tili bo'lib, unda web sahifalar yaratish mumkin

D) Gipermatnli dasturlash tili bo'lib, unda web saytlar yaratish mumkin

30. Paskal. Quyidagi dastur natijasini aniqlang.  
var x,y,a : integer;

begin x :=25; y:=15; if x<y then

begin a:=x;x:=(x+y) div 2; y:=a\*y; end.

else begin a := y ; y:=(x+y) div 2;

x: =x\*a; end;

write ('x=', x, ' y=', y ); end.

A) X=375 Y=20 B) X=20 Y=375

C) X=0 Y=0 D) Kompliyatsiyada xatolik xabari chiqadi

## FIZIKA

31. Massasi 8 kg bo'lgan brusok yer sirtida harakatlanmoqda. Unga 10 N sirpanish ishqalanish kuchi ta'sir etmoqda. Agar brusok va sirt orasidagi ishqalanish koeffitsiyentini o'zgartirmay brusokning massasi 5 marta kamaytirilsa, unga qanday ishqalanish kuchi ta'sir etadi?

A) 8. B) 5. C) 10. D) 2.

32. Avtomobil  $\sqrt{21}$  m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan harakat boshlagan paytda avtomobil ichidagi 80 kg li odamning og'irligi va unga ta'sir qiluvchi barcha kuchlarning teng ta'sir etuvchisi qanday bo'ladi (N)?

A) 880; 880. B) 880; 80.

C) 80; 880. D) 880;  $80\sqrt{21}$

33. Tekislik og'ish burchagining sinusi 0,6. Tekislik ustida massasi 8 kg bo'lgan yuk turibdi. Yukni qo'zg'almas ushlab qolish uchun 15 N kuch yetarli bo'ladimi? Ishqalanish koeffitsiyenti 0,5.  $g=10$  N/kg.

A) yetarli emas.

B) bu kuch yukni yuqoriga tortib ketadi.

C) ma'lumot yetarli emas.

D) yetarli.

34. Elektr sig'imi  $C_1=2$  nF  $C_2=3$  nF  $C_3=3$  nF dan bo'lgan kondensatorlardan ikkitasi o'zaro parallel, uchinchi esa ularga ketma-ket ulangan. Kondensatorlar batareyasi o'zgarms kuchlanish manbaidan zaryadlangan. Uchinchi kondensator olgan elektr zaryadi 6 nC ga teng bo'lsa, ikkinchi kondensator olgan elektr zaryadini aniqlang (nC).

A) 2,5. B) 1,6. C) 1,5. D) 3,6.


35. E kinetik energiyaga ( $\vartheta \ll c$ ) ega bo'lgan proton dastlab tinch turgan a-zarraga yaqinlashmoqda. Zarralarning tezliklari tenglashgan paytda sistemaning kinetik energiyasi qanday bo'lgan?  $m_a = 4m_p$ .

A) E/5. B) E. C) E/2. D) 4E/5.

36. Ikkita jism harakat tenglamasi mos ravishda  $x=10-15t$  (m) va  $y=30+20t$  (m). Bu jismlarning nisbiy tezligini toping (m/s).


A) 20. B) 25. C) 35. D) 30.

37. Jism bosib o'tgan yo'lining vaqtga bog'lanish grafigi paraboladan iborat. Jismning boshlang'ich tezligini toping (m/s).



A) 7. B) 8. C) 5. D) 6.

38. Rasmda moddiy nuqta tezligining vaqtga bog'liqlik grafigi tasvirlangan. Vaqt  $t=1$  s bo'lganda tezlik (m/s) qancha bo'lgan?




A) 9,4. B) 10,1. C) 9,1. D) 3.

39. Vinning siljish qonunini ko'rsating:

A)  $\lambda_{max} = 0,0029 \cdot T$ . B)  $\lambda_{max} = 1,0029/T$ .

C)  $\lambda_{max} = 0,0029/T$ . D)  $\lambda_{max} = 0,029/T$ .

40. Diamagnetiklar uchun magnitlanish vektorining magnit maydon kuchlanganligiga bog'lanishini ko'rsating.



A) 3. B) 1 va 2. C) 2. D) 1.

41. Vaqt o'tishi bilan psixrometrning quruq termometri ko'rsatishi o'zgarms, nam termometrning ko'rsatishi ortsa, nisbiy namlik qanday o'zgaradi?

A) kamayadi. B) o'zgarmaydi.

C) ortadi. D) avval ortib, keyin kamayadi.

42. Adiabatik jarayonda gaz 16 J ish bajardi. Bunda gazning ichki energiyasi qanchaga (J) o'zgardi?

A) 8. B) -12. C) -16. D) 16.

43. Vaqt o'tishi bilan psixrometrning nam termometri ko'rsatishi o'zgarms, quruq termometr ko'rsatishi kamaysa, nisbiy namlik qanday o'zgaradi?

A) ortadi. B) o'zgarmaydi.

C) kamayadi. D) avval ortib, keyin kamayadi.

44. Azot molekularining ilgarilanma harakat ( $28$  g/mol) o'rtacha kvadratik tezligi  $200$  m/s. Gazning temperaturasi (K) qanday?

A) 16,6. B) 26. C) 45. D) 22,6.

45. Misning molyar massasi  $63,5$  g/mol, solishtirma issiqlik sig'imi  $380$  J/(kg·K). Bir mol misning molyar issiqlik sig'imi (J/K) nimaga teng? (R-universal gaz doimiysi.)

A) 2,9R. B) 3,9R. C) 8,3R. D) R.

46. Astronomiyada masofani o'lchashda ishlatiladigan astronomik birlik (a.b yoki a.u) necha km ga teng?

A) 50 mln. B) 100 mln.

C) 150 mln. D) 120 mln.

47. Quyidagi jumlaning davom ettiring: Yorug'lik kuchi bu....


A) birlik fazoviy burchakda tarqalayotgan yorug'lik oqimi.

B) tekis yoritilgan sirtning birlik yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimi.

C) vaqt birligi ichida biror yuzaga tushayotgan yorug'lik energiyasi.


D) yorug'lik manbaining yuza birligidan barcha yo'nalishlar bo'yicha nurlatayotgan yorug'lik oqimi.

48. Elektr zanjirning tarmoqlanmagan qismidagi tok kuchi 6 A bo'lsa, Ampermetrning ko'rsatishini aniqlang?



A) 6 A. B) 2 A. C) 3 A. D) 4 A.

49. Keltirilgan elektr zanjirdan foydalanib, K va L nuqtalar orasidagi umumiy qarshilik necha om bo'lishini aniqlang.



- A) 4. B) 3. C) 6. D) 2.

50. Liftda suyuqlik quyilgan idishga kapillyar nay tushurilgan. Lift yuqoriga  $a < g$  tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakatlansa, naydagi suyuqlikning ko'tarilish balandligi qanday o'zgaradi?  
A) kamayadi. B) ortadi.  
C) o'zgarmaydi. D) aniqlab bo'lmaydi.
51. Massasi  $m=1$  kg, tezligi  $v=100$  m/s bo'lgan snaryad portlaganda uning umumiy impulsi (1) va kinetik energiyasi (2) qanday o'zgaradi?  
A) 1-o'zgarmaydi; 2-o'zgarmaydi.  
B) 1-kamayadi; 2-kamayadi.  
C) 1-o'zgarmaydi; 2-ortadi.  
D) 1-ortadi; 2-ortadi.
52. Ish birligi (J) qanday fizik miqdor birligi bilan mos tushadi?  
A) quvvat. B) magnit momenti.  
C) kuch momenti. D) impuls momenti.
53. Dastlab cho'zilmagan, bikrligi  $k=131$  N/m bo'lgan prujinaga  $m=131$  g yuk osib qo'yib yuborilganda A amplitudali garmonik tebranishlar yuzaga keldi. Prujina maksimal cho'zilganda yukning balandligi  $h=0$  deb hisoblab, yukning kinetik energiyasi minimal bo'lgan paytda uning tezlanishi qanday bo'ladi ( $m/s^2$ )?  
A) 4,9. B) 9,8. C) 5,4. D) 0.
54. Elektromagnit to'lqin magnit kirituvchanligi  $\mu=11$  bo'lgan muhitdan havoga o'tdi. Bunda uning tebranish vaqtiga teng vaqt davomida ko'chish masofasi qanday o'zgaradi?  
A) kamayadi. B) ortadi.  
C) avval ortadi, so'ngra kamayadi. D) o'zgarmaydi.
55. Gorizontal platforma vertikal yo'nalishda A amplituda va  $\omega$  siklik chastota bilan garmonik tebranmoqda. Platformaning maksimal tezligini toping.  
A)  $\omega/A$ . B)  $2\omega/A$ . C)  $\omega A$ . D)  $2\omega A$ .
56. Qizdirgich lampaning quvvati 100 W, toza metall qizdirgich elementining nominal temperaturasi 3000 K. Lampa kuchlanish tarmog'iga ( $U=220$  V) ulangach, temperatura 2700 K ga yetgan paytda lampadan o'tayotgan tok kuchining qiymati (A) topilsin. Qarshilik qiymati absolut temperaturaga to'g'ri proporsional va  $R(0)=0$ .  
A) 0,50. B) 0,42. C) 0,56. D) 0,38.
57.  $\eta$ -mezon elementar zarralarning qaysi sinfiga qarashli?  
A) mezonlar. B) barionlar.  
C) leptonlar. D) fotonlar.
58. Fotonning spini nimaga teng?  
A)  $h/4$ . B)  $h/2\pi$ . C)  $h/4\pi$ . D)  $h$ .
59.  ${}_{92}^{238}U$  neytral atomidagi elektronlar sonining neytronlar soniga nisbati qanday bo'ladi?  
A) 45/76. B) 46/73.  
C) 46/143. D) 92/235.
60. Vodorod atomidagi elektron 3-kvant sathdan 1-kvant sathga o'tishi uchun u qanday energiya yutishi kerak (eV)?  
A) 12,1. B) 3,4.  
C) nurlanmaydi. D) yutilmaydi.

## ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Nechta so'zda nuqtalar o'rniga bo'g'iz undoshi yoziladi?  
...abash, ...abib, ...avas, ...ijja, ...ijjalab, ...ijil, ...  
aspo'shlamoq  
A) 3 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 2 ta
62. Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik, egalik qo'shimchalari, ko'makchi va tobelantiruvchi ohang yordamida bog'lanishidan hosil bo'lgan birlik nima deb ataladi?  
A) so'z birikmasi B) turg'un birikma  
C) lug'aviy birlik D) gap
63. Bizda ota-ona o'g'il-qizini voyaga yetkazadi, yelib-yugurib ularni oilali qiladi, Ushbu gapdagi Juft so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.  
A) ega, vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi  
B) ega, vositasiz to'ldiruvchi, hol  
C) ega, vositasiz to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi  
D) ega, vositali to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol
64. O'qqo'rg'on, makkajo'xori, bodomnuxsa, izzattalab, tinchliksevar. Berilgan so'zlardan qator undoshli so'zlar sonini aniqlang.  
A) 1 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 2 ta
65. Nechanchi asrdan o'zbek urug'larining nomi butun xalq nomiga aylanib ketdi?  
A) XV asrdan B) XII asrdan  
C) XVI asrdan D) XIII asrdan
66. Yasalishga asos qismi yasama fe'ldan yasalgan so'zni aniqlang.  
A) atama B) qo'riqchilik  
C) qiynog'i D) o'ynoqiliging
67. Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan?  
A) Agar odam o'z hayot yo'lida yangi do'st ortirmasa, u tezda yakkalanib qoladi.  
B) Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi.  
C) Tarbiyali kishilar inson shaxsini hurmat qiladilar, shuning uchun ham ular marhamatli, oq ko'ngil, xushmuomala va ko'ngilchandirlar.  
D) Kitobning vazifasi hayotni bilishni osonlashtirish va tezlashtirishdir, lekin u hayotning o'rnini bosolmaydi.
68. Qaysi qatorda ot turkumiga mansub ma'nodosh so'zlar berilgan?  
A) keksa, mo'ysafid, qari  
B) qiyinchilik, mashaqqat, zahmat  
C) kasallik, xastalik, bemor  
D) oytin, ravshan, ochiq
69. Quyida berilgan gapdagi ibora qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan? **Daladagi hosilni ko'rib, raisning boshi osmonga yetdi.**  
A) kesim B) aniqlovchi  
C) ega D) to'ldiruvchi
70. Grekcha "birgalikda anglash" so'zidan olingan ma'no ko'chishi qanday nomlanadi?  
A) metafora B) metonimiya  
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik
71. Qaysi gapda sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chgan?  
A) Mehmonlar uchun meva-cheva, quyuq-suyuq tortildi.  
B) El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.  
C) Dunyoda tashvishlarni ko'p chekdi boshim.  
D) Umrini ilmga bag'ishlagan odam abadiy umrga erishadi.
72. Quyidagi gap haqidagi to'g'ri hukmlarni belgilang. O'z fikrini o'ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi.  
1) so'z yasovchi qo'shimchalar ishtirokida yasalgan 3 ta

72. yasama so'z mavjud; 2) so'z yasovchi qo'shimchalar ishtirokida yasalgan 4 ta yasama so'z mavjud; 3) otdan yasalgan 2 ta yasama fe'l ishtirok etgan; 4) otdan yasalgan 1 ta yasama fe'l ishtirok etgan; 5) tarkibi asos + so'z yasovchi qo'shimcha + so'z yasovchi qo'shimcha tuzilishidagi 1 ta so'z mavjud; 6) tarkibi asos + so'z yasovchi qo'shimcha + so'z yasovchi qo'shimcha tuzilishidagi 2 ta so'z mavjud  
A) 2, 4, 6 B) 2, 4, 5, 6  
C) 1, 3, 5 D) 1, 3, 6
73. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirganda qaysi tinish belgisi yo'qolib ketmaydi?  
A) ko'chirma gapning boshi va oxiridagi qo'shtirnoq  
B) muallif gapidan keyingi ikki nuqta  
C) ko'chirma gapdan keyingi tire  
D) muallif gapidan keyingi so'roq
74. Yordamchi so'zlar turkumiga xos birliklarning barcha turi ishtirok etmagan gaplarni aniqlang.  
1. Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo'lib qolmay, buyuklik va insoniylikning ayni o'zidir.  
2. Usmon Nosir nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlar bilan ajralib turardi.  
3. Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, gurullab yondi.  
A) 2, 3 B) 1, 2 C) 1, 3 D) 1, 2, 3
75. Quyidagi tillardan qaysi biri turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansub?  
A) uyg'ur B) tatar  
C) qoraqalpoq D) qozoq
76. **Bemor ayollar bilan muloyim gaplashadi-yu, lekin ko'ngli, turmushi haqida ochiq gapirmaydi.** Ushbu gapda asosi ism bo'lgan nechta yasama so'z bor?  
A) 2 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 5 ta
77. Qaysi qatorda qo'llangan olmosh (lar) o'timsiz fe'lga bog'langan?  
A) Bu shartnomadan nafaqat ular, balki hammamiz mamnun bo'lamiz.  
B) Har kim ekanin o'rar.  
C) Vatanni tanishni o'zlikni anglashdan boshlash kerak.  
D) Noyob qo'lyozma faqat sizga ko'rsatish uchun keltirilgandi.
78. Forobiyning yozishicha, inson jamiyatda, o'zaro munosabatlarda voyaga yetadi. Berilgan gapda vergulning qo'yilish sababini aniqlang.  
A) qo'shma gap qismlari va uyushiq bo'laklar orasida  
B) kirish birikmalar va uyushiq bo'laklar orasida  
C) ajratilgan bo'laklar orasida  
D) undalma va uyushiq bo'lak bo'lgani uchun
79. Qo'sh undosh xato qo'llangan qatorni aniqlang?  
A) mutaassib B) yakkandoz  
C) qo'qqisdan D) muqaddam
80. Qaysi javobda "qildan qiyiq topmoq" iborasining ma'nodoshi berilgan?  
A) sirkasi suv ko'tarmaydigan  
B) tirnoq ostidan kir qidirmoq  
C) ichidan pishgan  
D) yer bilan yakson qilmoq
81. Ne oshiqdir, yig'lar, ko'zda yoshi yo'q?  
Ne gavdadir, ikki kifta boshi yo'q?  
U1 ne Ko'zdir, kiprigi yo'q, qoshi yo'q,  
Ko'zlilardan yaxshi narsalar ko'rmish?  
Ushbu she'riy matn haqida noto'g'ri fikr berilgan qatorni aniqlang.  
A) Olmoshning 2 xil turi qo'llangan.  
B) O'zaro shakldosh qo'shimchalar uchramaydi.  
C) Mustaqil atash ma'nosiga ega bo'lmagan 8 ta so'z
- qo'llangan.  
D) 1 tagina fonetik hodisa uchraydi.
82. Mirmuhsinning qaysi qissalari o'tmish tarixidan aks ettirishga qaratilgan?  
1."Oq marmar", 2."Cho'ri",  
3."Chodrali ayol" 4."Tungi chaqmoqlar"  
A) 1,2 B) 1,2,4 C) 1,2,3 D) 2
83. G'afur G'ulomning qissalari: 1. "Kuzatish", 2. "Netay", 3. "Sen yetim emassan", 4. "Yodgor", 5. "Vaqt", 6. "Tirilgan murda" 7. "Sog'inish", 8. "Shum bola" 9. "Onalar"  
A) 1,3,5,6 B) 2,3,4,6  
C) 1,3,5,7 D) 2,4,6,8
84. Vaysiy beriyozat deb sahl tutma, ey orif,  
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman."beriyozat" so'zining ma'nosi...  
A) mashaqqatsiz, qiynoqsiz, azobsiz. B) yengil, oson.  
C) ergashish. D) dunyodan uzilgan.
85. Ganja shahi ganj fishon, payrav ul,  
Shah bu so'z iqlimi aro, Xusrav - ul.  
Ushbu parcha qaysi asardan?  
A) "Layli va Majnun" B) "Sab'ayi sayyor"  
C) "Farhod va Shirin" D) "Hayrat ul-abror"
86. "Yo'l-yo'riq bilmas kishiga bilim o'rgatadi, yo'l ko'rsatadi, uning vujudi ehsonga to'la, himmati balanddir. U aql, hush, yaxshi xislat makonidir, bilim manbai ham fazilat konidir". Ushbu parcha qaysi asardan?  
A) "Qutadg'u bilig" B) "Hibatul-haqoyiq"  
C) "Devonu lug'ot it-turk" D) "Yatimat ad-dahr"
87. T.To'laning ikkinchi jahon urushi yillarida yaratilgan to'plamlarini toping. 1."SHodligim", 2. "Oromijon", 3."Gulyor", 4."Tabassum"  
A) 2,4 B) 3,4 C) 1,3 D) 1,4
88. Dehlaviy "Xamsa"sining beshinchi dostoni qanday nomlanadi?  
A) "Xiradnomayi Iskandariy" B) "Oyinayi Iskandariy"  
C) "Saddi Ikandariy" D) "Iskandarnoma"
89. «Biling, o'g'lonlarim, sizlarni g'amdan qutqarur maktab, Siroti mustaqim, rohi adamdan qutqarur maktab». Ushbu she'riy parcha muallifini aniqlang.  
A) Abdulla Avloniy B) Fitrat  
C) Muhammad Sharif So'fizoda D) Hamza
90. Navoiy "hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan badi' nishotlar kayfiyatini yozilib erdi" deb qaysi devoni haqida aytgan?  
A) "Favoyid ul-kibar"  
B) "Navodir ush-shabob"  
C) "G'aroyib us-sig'ar"  
D) "Badoye' ul-vasat"

